



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 88 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
<i>Ibraymova Altinay Esemuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
<i>Abdiraximova Dildora Begimkulovna</i>	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar	20
<i>Raxmatov Uchkun Ergashevich</i>	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
<i>Adizova Muxabbat Muxitdinovna</i>	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
<i>Sultonov Mansur G'aniyevich</i>	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
<i>Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi</i>	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
<i>Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna</i>	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
<i>Jalolova Pokiza Muzaffarovna</i>	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
<i>Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich</i>	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
<i>Baxramova Diyora Sanjar qizi</i>	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
<i>Gaffarov Xasan Ravshanovich</i>	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlari (O'zbekiston misolida)...	70
<i>Jonpo'lotova Manzura Jahonovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
<i>Axrorova Umida Xamidullayevna</i>	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
<i>Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi</i>	

ONKOLOGIK BEMORLARGA TASHXISNI BILDIRISH MADANIYATI VA UNING PSIXOLOGIK OQIBATLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA)

Jonpo'lotova Manzura Jahonovna
BuxDU tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada onkologik tashxisni bemorga bildirish jarayonining madaniy-axloqiy xususiyatlari va uning bemor psixologiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi - O'zbekiston sog'liqni saqlash amaliyotida keng tarqalgan "tashxisni oiladan yoki bemordan yashirish" an'anasining psixologik oqibatlarini nazariy jihatdan asoslash va uni xalqaro "informed consent" (ogohlantirilgan rozilik) tamoyillari bilan qiyoslashdir. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-madaniy yondashuv va mavjud ilmiy adabiyotlarni tizimlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tashxisni yashirish qisqa muddatda bemorni emotsional zarbadan "himoya qilish" vazifasini bajarsa-da, uzoq muddatda ishonchsizlik, ijtimoiy izolatsiya, davolanishga faol ishtirok etmaslik va patologik qayg'u kabi psixologik asoratlarga olib kelishi mumkin. Maqola yakunida bemor-shifokor-oila munosabatlarini uyg'unlashtiruvchi, milliy mentalitetga mos psixologik yordam modelini ishlab chiqish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: psixoonkologiya, tashxisni bildirish, ogohlantirilgan rozilik, bemor psixologiyasi, madaniy an'ana, emotsional inqiroz, O'zbekiston.

Abstract: This article examines the cultural and ethical features of disclosing a cancer diagnosis to patients and the impact of this process on patients' psychological state. The aim of the study is to theoretically substantiate the psychological consequences of the diagnosis-concealment tradition, which remains widespread in Uzbekistan's healthcare practice, and to compare it with the international principle of informed consent. The study employs theoretical analysis, a comparative-cultural approach, and systematization of existing scholarly literature. The findings indicate that although concealment may serve a short-term protective function, in the long term it can lead to loss of trust, social isolation, reduced treatment adherence, and pathological grief. The article concludes by substantiating the need to develop a culturally sensitive model of psychological support that harmonizes patient-physician-family relations.

Key words: psycho-oncology, diagnosis disclosure, informed consent, patient psychology, cultural tradition, emotional crisis, Uzbekistan.

Аннотация: В статье анализируются культурно-этические особенности процесса сообщения онкологического диагноза пациенту и его влияние на психологическое состояние больного. Цель работы - теоретически обосновать психологические последствия широко распространённой в узбекистанской медицинской практике традиции "сокрытия диагноза" от пациента или его семьи и сопоставить её с международными принципами "информированного согласия". Используются методы теоретического анализа, сравнительно-культурного подхода и систематизации научной литературы. Результаты показывают, что сокрытие диагноза, выполняя краткосрочную защитную функцию, в долгосрочной перспективе может приводить к недоверию, социальной изоляции, снижению приверженности лечению и патологическому горю. В заключение обосновывается необходимость разработки модели психологической помощи, гармонизирующей отношения "пациент – врач – семья" с учётом национального менталитета.

Ключевые слова: психоонкология, сообщение диагноза, информированное согласие, психология пациента, культурная традиция, эмоциональный кризис, Узбекистан.

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo bo'yicha bo'lgani kabi O'zbekistonda ham onkologik kasalliklar tarqalishi sog'liqni saqlash tizimining dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi ma'lumotlariga ko'ra, aholi orasida saraton kasalliklari bilan kasallanish ko'rsatkichlari yildan-yilga sezilarli o'sib bormoqda. Biroq bu muammoning faqat tibbiy-biologik jihatlari emas, balki uning psixologik va ijtimoiy-madaniy o'lchamlari ham chuqur ilmiy tahlilni talab etadi.



Onkologik tashxis bemor uchun nafaqat jismoniy, balki eng avvalo ekzistensial va psixologik inqiroz demakdir. Bemor ushbu xabarni qanday va kim orqali eshitishi - uning kasallikka nisbatan keyingi munosabatini, davolanish jarayoniga ishtirokini va hayot sifatini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biridir. Xalqaro tibbiy amaliyotda "informed consent" (ogohlantirilgan rozilik) tamoyili asosida bemorning o'z tashxisi, prognozi va davolash variantlari haqida to'liq va halol ma'lumot olish huquqi tan olingan. Ammo O'zbekiston, shuningdek boshqa ko'plab Sharq mamlakatlari amaliyotida hanuzgacha "tashxisni bemordan yashirish, uni faqat oila a'zolariga bildirish" an'anasi keng tarqalgan bo'lib, bu amaliyot ilmiy psixologik nuqtai nazardan yetarlicha o'rganilmagan.

Mazkur **maqolaning dolzarbligi** aynan shu bo'shliqdan - mahalliy madaniy-mentalitet kontekstida tashxisni bildirish amaliyotining psixologik oqibatlarini ilmiy jihatdan tahlil qiluvchi tadqiqotlarning yetishmasligidan kelib chiqadi.

Tadqiqotning maqsadi - tashxisni yashirish va ochiq bildirish strategiyalarining bemor psixologiyasiga ta'sirini nazariy jihatdan tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda milliy mentalitetga mos psixologik yordam ko'rsatish yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) tashxisni bildirish madaniyati bo'yicha xalqaro va mahalliy nazariy manbalarni tahlil qilish;
- 2) tashxisni yashirish amaliyotining psixologik mexanizmlarini (himoya reaksiyasi, qayg'u dinamikasi, ishonch inqirozi) yoritish;
- 3) O'zbekiston sharoitida madaniy jihatdan moslashtirilgan kommunikatsiya modeli uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADSABIYOTLAR SHARHI

Tashxisni bildirish muammosi xalqaro psixoonkologiya fanida allaqachon alohida yo'nalish sifatida shakllangan. E. Kyubler-Ross o'zining klassik tadqiqotida og'ir tashxisga bemor reaksiyasining bosqichma-bosqich kechishini - inkor, g'azab, kelishuv, tushkunlik va qabul qilish bosqichlarini - tavsiflab bergan edi ^[7] Ushbu model hozirgacha bemor psixologiyasini tushunishning nazariy asosi bo'lib xizmat qilmoqda, biroq u asosan g'arbiy individualistik madaniyat sharoitida shakllangan bo'lib, jamoaviy va oilaviy qadriyatlar ustuvor bo'lgan jamiyatlarda to'liq mos kelmasligi mumkin.

J. Xolland tomonidan asos solingan psixoonkologiya yo'nalishi bemorning tashxisga psixologik moslashuvini davolanish samaradorligining muhim omili sifatida ko'rsatib beradi. ^[5] Uning tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, bemorning o'z holati haqida real ma'lumotga ega bo'lishi unga davolanish jarayonida faol ishtirok etish, qarorlar qabul qilishda sub'yekt bo'lish imkonini beradi. Aksincha, ma'lumotning yashirilishi bemorni passiv "ob'yekt" holatiga tushirib, uning ichki resurslarini safarbar etish imkoniyatini cheklaydi.

V.F. Beyl va hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan SPIKES protokoli og'ir xabarni bildirishning bosqichma-bosqich, bemorning psixologik holatini hisobga oluvchi tizimli usulini taqdim etadi: vaziyatga tayyorlash, bemorning bilim darajasini aniqlash, uning axborotga bo'lgan ehtiyojini bilish, ma'lumotni bosqichma-bosqich yetkazish, emotsiyalarga hamdardlik bildirish va kelgusi rejani birgalikda belgilash ^[1]. Ushbu protokol dunyoning ko'plab klinikalarida amaliyotga tatbiq etilgan, biroq u madaniy jihatdan neytral bo'lib, jamoaviy qaror qabul qilish an'anasi kuchli bo'lgan jamiyatlar uchun moslashtirishni talab qiladi.

A. Surbone va L. Fallouvfild kabi tadqiqotchilarning ishlarida turli madaniyatlarda tashxisni bildirish amaliyotining farqlari o'rganilgan. Ularning ta'kidlashicha, O'rta yer dengizi, Janubiy Osiyo va Markaziy Osiyo mintaqalarida oila instituti tibbiy qarorlar qabul qilishda markaziy o'rin tutadi - bu yerda "tashxisni bilish huquqi" ko'pincha individual emas, balki jamoaviy (oilaviy) huquq sifatida idrok etiladi. Bu holat G'arb bioetikasidagi "bemor avtonomiyasi" tamoyili bilan ziddiyatga kirishi mumkin ^[8].

O'zbekiston tibbiyot amaliyotida ushbu masala hali maxsus psixologik tadqiqot ob'yekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Mavjud nashrlarning aksariyati onkologik kasalliklarning tibbiy-klinik jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, bemorning psixologik holati, uning tashxisni qabul qilish dinamikasi va oila a'zolarining bu jarayondagi roli deyarli chetda qolgan. Ayni shu bo'shliq mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- 1) mavzuga oid xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodi;
- 2) qiyosiy-madaniy tahlil metodi - g'arb va sharq tibbiy-madaniy modellarini solishtirish orqali;

- 3) nazariy umumlashtirish va modellashtirish metodi - mahalliy sharoitga mos kommunikatsiya yondashuvini shakllantirish maqsadida.

Tadqiqot empirik ma'lumotlar yig'ishga emas, balki mavjud nazariy va amaliy tajribani tahliliy jihatdan qayta ko'rib chiqishga qaratilgan bo'lib, kelgusi empirik (so'rovnoma, chuqurlashtirilgan intervyu asosidagi) tadqiqotlar uchun nazariy poydevor yaratishni maqsad qilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan nazariy tahlil natijasida tashxisni bildirish amaliyotining bemor psixologiyasiga ta'sirini quyidagi yo'nalishlarda tizimlashtirish mumkin bo'ldi.

*Birinchi*dan, tashxisni yashirish qisqa muddatli "himoya" mexanizmi sifatida amal qiladi. Oila a'zolari, odatda, bemorni "og'ir xabardan asrash" niyatida harakat qiladi, bu O'zbekiston madaniyatida umumiy qabul qilingan "xavotirni baham ko'rish" va "og'irlikni yengillashtirish" tamoyillari bilan bog'liq. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, bemor, hatto to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot berilmasa-da, o'z atrofidagi kishilarning xatti-harakati, ovoz ohangi va davolanish tartibidagi o'zgarishlar orqali haqiqatni intuitiv his qiladi. Bu holat "mutual pretense" ('o'zaro niqoblash") deb ataluvchi hodisani keltirib chiqaradi - bunda bemor va oila a'zolari bir-biridan haqiqatni bilishlarini yashirishga harakat qiladilar, natijada samimiy muloqot imkoniyati yo'qoladi.

*Ikkinchi*dan, ma'lumotning yashirilishi bemorda ishonchsizlik va izolatsiya hissini kuchaytirishi mumkin. Bemor o'zini davolash jarayonining faol ishtirokchisi emas, balki uning "ob'yekti" sifatida his qiladi. Bu, o'z navbatida, davolanishga bo'lgan ichki motivatsiyani pasaytirishi, dori-darmon va protsedura tartibiga rioya qilish darajasini (komplayens) susaytirishi mumkin, chunki bemor o'z holatining og'irlik darajasini to'liq anglamaydi.

*Uchinchi*dan, tashxis oxir-oqibat ma'lum bo'lgan taqdirda (kasallik og'irlashishi, davolanish natijasi kutilganidek bo'lmasligi kabi holatlarda), bemorda "og'ir haqiqatni keyingi bosqichda kutilmagan tarzda bilib olish" natijasida kuchli ruhiy zarba, ishonchsizlik va hatto shifokor hamda yaqinlariga nisbatan ranjish (xiyonat hissi) kuzatilishi mumkin. Bu holat qayg'u jarayonining tabiiy kechishini buzib, uni patologik shaklga o'tishiga sabab bo'lishi mumkin - masalan, cho'zilgan (murakkablashgan) qayg'u yoki keyinchalik tibbiyot tizimiga ishonchsizlik ko'rinishida.

*To'rtinchi*dan, shu bilan birga, tashxisni to'liq va tayyorgarliksiz bildirish ham o'z-o'zidan yechim emasligini alohida ta'kidlash lozim. Agar xabar berish jarayoni psixologik jihatdan tayyorlanmagan holda, bosqichma-bosqich yondashuvsiz amalga oshirilsa, bu ham xuddi yashirishga o'xshab, kuchli travmatik ta'sir ko'rsatishi mumkin. Demak, masala "aytish yoki aytmaslik" dixotomiyasida emas, balki "qanday, qachon va kim tomonidan aytilishi" sifat ko'rsatkichida joylashadi.

*Beshinchi*dan, oila institutining roli O'zbekiston sharoitida alohida ahamiyatga ega. G'arb modellaridan farqli o'laroq, bu yerda oila nafaqat qo'llab-quvvatlash manbai, balki tibbiy qarorlar qabul qilish jarayonining faol sub'yekti hisoblanadi. Shu sababli, samarali psixologik yordam modeli bemorni oiladan "ajratib" emas, balki oila a'zolarini ham jarayonga psixologik jihatdan tayyorlangan holda jalb etish orqali qurilishi kerak.

Ushbu natijalar asosida quyidagi nazariy xulosaga kelish mumkin: tashxisni bildirish samaradorligi ikkita omilning muvozanatiga bog'liq - bemorning haqiqatni bilish huquqi (avtonomiya tamoyili) va uni bosqichma-bosqich, psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlangan holda yetkazish zarurati (mehr-shafqat tamoyili). Milliy mentalitetga mos model aynan shu ikki tamoyilni - g'arbcha ochiqlik va sharqona hamjihatlikni - uyg'unlashtirishga qaratilishi lozim.

Milliy mentalitetga mos psixologik yordam modeli

Yuqorida qayd etilgan nazariy xulosalar asosida O'zbekiston sog'liqni saqlash amaliyoti uchun bosqichma-bosqich kommunikatsiya modelini taklif etish mumkin. Ushbu model to'rt asosiy bosqichdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq.

Birinchi bosqich - **"tayyorgarlik" deb ataladi.** Bu bosqichda shifokor yoki psixonkolog bemor va uning oilasi bilan dastlabki suhbat o'tkazadi, bemorning kasallik haqida qanchalik ma'lumotga ega ekanligini, uning axborotni qabul qilishga psixologik tayyorligini va oiladagi qaror qabul qilish tartibini aniqlaydi. Bu bosqichning ahamiyati shundaki, u keyingi barcha muloqot jarayonini bemorning individual xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi.

Ikkinchi bosqich - **"bosqichma-bosqich xabar berish".** Bu bosqichda tashxis haqidagi ma'lumot bir vaqtning o'zida emas, balki bemorning emotsional reaksiyasini kuzatib borgan holda, ketma-ket porsiyalarda yetkaziladi. Bunda shifokor bemorning savol berishga bo'lgan tayyorligini hisobga oladi va uni ma'lumot bilan "bosib qolmaydi".



Uchinchi bosqich - “**emotsional qo'llab-quvvatlash**”. Tashxis bildirilgandan so'ng bemorga zudlik bilan klinik psixolog yordami taklif etilishi, uning qayg'u va qo'rquv his-tuyg'ularini ifodalashi uchun xavfsiz muhit yaratilishi lozim. Ayni shu bosqichda oila a'zolari bilan alohida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ham o'z navbatida kuchli stress holatida bo'ladi.

To'rtinchi bosqich - “**birgalikda reja tuzish**”. Bemor va oila a'zolari davolash rejasi, uning bosqichlari va kutilayotgan natijalari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lgan holda, davolanish jarayonining teng huquqli sub'yektlariga aylanadi. Bu bosqich bemorning o'z kasalligi ustidan “nazorat hissinini” tiklashiga xizmat qiladi, bu esa psixologik moslashuvning muhim omili hisoblanadi.

Ushbu model g'arbiy SPIKES protokolining bosqichma-bosqichlik tamoyilini saqlagan holda, uni O'zbekiston sharoitiga xos oilaviy jamoaviylik va hurmat-ehtirom qadriyatlari bilan boyitadi. Bunday yondashuv bemorni oiladan ajratmagan holda, uning shaxsiy avtonomiyasini ham hurmat qilishga imkon beradi.

Tibbiyot xodimlarini tayyorlashning psixologik jihatlari

Tashxisni bildirish madaniyatini o'zgartirishning muhim sharti - tibbiyot ta'limi tizimida kommunikativ ko'nikmalarni maxsus o'qitishdir. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, shifokorlarning aksariyati og'ir xabarni bildirish bo'yicha maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmagani sababli, bu vazifani intuitiv ravishda, ko'pincha noqulaylik va ichki qo'rquv holatida bajaradi. Natijada ular ongli yoki ongsiz tarzda “tashxisni yashirish” yoki uni juda qisqa va quruq shaklda bildirishni afzal ko'rishlari mumkin - bu esa o'z shaxsiy hissiy noqulayligini kamaytirish strategiyasi hisoblanadi.

Shu sababli, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlariga “klinik kommunikatsiya” va “bemor psixologiyasi” fanlarini alohida modul sifatida kiritish, shuningdek amaliyotdagi shifokorlar uchun malaka oshirish kurslarida rolli o'yinlar va simulyatsion mashg'ulotlar orqali og'ir xabar berish ko'nikmalarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Bunday tayyorgarlik nafaqat bemor, balki shifokorning o'zi uchun ham “emotsional charchash” (burnout) xavfini kamaytirishga xizmat qiladi, chunki tizimli o'rgatilgan ko'nikma stixiyali reaksiyaga qaraganda kamroq psixologik resurs talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, onkologik bemorga tashxisni bildirish madaniyati O'zbekiston sharoitida hali yetarlicha ilmiy psixologik asosga ega emas va ko'pincha norasmiy, oilaviy an'analarga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu amaliyot qisqa muddatda himoya vazifasini bajarsa-da, uzoq muddatli istiqbolda bemorning psixologik farovonligiga, davolanishga ishtiroki va shifokor-bemor ishonchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

birinchidan, onkologik klinikalarda klinik psixolog yoki psixoonkolog lavozimini joriy etish va ularni tashxisni bildirish jarayoniga bevosita jalb qilish;

ikkinchidan, shifokorlar uchun madaniy jihatdan moslashtirilgan (oilaviy qarorlar tizimini hisobga oluvchi) kommunikatsiya bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini joriy etish;

uchinchidan, bemor va oila a'zolari bilan bosqichma-bosqich ishlash algoritmini ishlab chiqish, unda tashxis haqidagi ma'lumot bemorning psixologik tayyorligiga qarab dozalangan holda yetkaziladi;

to'rtinchidan, mavzu bo'yicha keng ko'lamli empirik (so'rovnoma va chuqurlashtirilgan intervyu asosidagi) tadqiqotlar o'tkazish, bu esa nazariy xulosalarni mahalliy statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, tashxisni bildirish jarayoni shunchaki tibbiy protsedura emas, balki chuqur psixologik va madaniy mazmunga ega bo'lgan muloqot akti bo'lib, uning sifatli tashkil etilishi onkologik bemorning butun davolanish yo'lidagi ruhiy holatini va hayot sifatini belgilovchi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baile W.F., Buckman R., Lenzi R., Glober G., Beale E.A., Kudelka A.P. SPIKES-A Six-Step Protocol for Delivering Bad News: Application to the Patient with Cancer // The Oncologist. - 2000. - Vol. 5, No. 4. - P. 302-311.
2. Butow P.N., Kazemi J.N., Beeney L.J., Griffin A.M., Dunn S.M., Tattersall M.H. When the diagnosis is cancer: patient communication experiences and preferences // Cancer. - 1996. - Vol. 77, No. 12. - P. 2630-2637.
3. Fallowfield L., Jenkins V. Communicating sad, bad, and difficult news in medicine // The Lancet. - 2004. - Vol. 363, No. 9405. - P. 312-319.
4. Holland J.C., Rowland J.H. (Eds.) Handbook of Psychooncology: Psychological Care of the Patient with Cancer. - New York: Oxford University Press, 1990. - 784 p.



5. Holland J.C., Breitbart W.S., Jacobsen P.B., Lederberg M.S., Loscalzo M.J., McCorkle R. (Eds.) *Psycho-Oncology*. - 2nd ed. - New York: Oxford University Press, 2010. - 792 p.
6. Kübler-Ross E. *On Death and Dying*. - New York: Macmillan, 1969. - 260 p.
7. Surbone A. Truth telling to the patient // *JAMA*. - 1992. - Vol. 268, No. 13. - P. 1661–1662.
8. Surbone A. Cultural aspects of communication in cancer care // *Supportive Care in Cancer*. - 2008. - Vol. 16, No. 3. - P. 235–240.
9. World Health Organization. *National cancer control programmes: policies and managerial guidelines*. - 2nd ed. - Geneva: WHO, 2002.
10. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi. *Rasmiy statistik ma'lumotlar to'plami*. - Toshkent, 2025.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.